# MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI IJODIY QOBILIYATLARINI O‘STIRISHDA SAHNALASHTIRILGAN TEATR O‘YINLARINING O‘RNI

**Yuldasheva Madina Rashidovna**
Sharof Rashidov tumani
27-son DMTT direktori

**Annotatasiya:** Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarni ijodiy qobiliyatlarini o‘stirishda sahnalashtirilgan teatr o‘yinlarining o‘rni haqida so‘z borgan.

**Kalit so‘zlar:** ijodga e’tibor, qiziqish, intilish, quvonch hissi, qobiliyat, nutqiy rivojlanish, emotsional faoliyat, ichki kechinmalar, bola nutqi, tovush madaniyat.

**Аннотация:** В данной статье говорится о роли постановочных театральных игр в развитии творческих способностей дошкольников.

**Ключевые слова:** внимание к творчеству, интерес, стремление, чувство радости, способность, речевое развитие, эмоциональная активность, внутренние переживания, детская речь, звуковая культура.

**Abstract:** This article talks about the role of staged theater games in developing the creative abilities of preschool children.

**Key words:** attention to creativity, interest, aspiration, feeling of joy, ability, speech development, emotional activity, inner experiences, children’s speech, sound culture.

O‘yin bola hayotida yetakchi o‘rinni egallaydi. Har bir insonning bolaligi rolli va sahnalashtirigan ijodiy o‘yinlar asosida o‘tadi. Teatr bolani ma’naviy tarbiyalaydi. Teatr – sehrli olam, unda bola o‘ynab, quvonadi, o‘ynab atrof- olamni o‘rganadi, ya’ni uning emotsional olami boyiydi. Bolada ijodga e’tibor, qiziqish, intilishning namoyon bo‘lishi uning ta’surotlarini yangilaydigan emotsional undovlarni talab qiladi. Bu borada teatrlashtirish faoliyatining juda katta ijobiy ahamiyatini alohida ta’kidlash mumkin.

Pedagogik jihatdan to‘g‘ri tashkil qilingan bu kabi faoliyat bola hayotiga yangi qimmatli mazmun olib kiradi, quvonch hissini uyg‘otadi, barcha kuch va qobiliyatlari, jumladan nutqiy rivojlanish qobiliyatlarini faoliyatga safarbar qilishga undaydi. Shuningdek, teatrlashtirilgan saxnalashtirish faoliyati bolalarning ichki kechinmalari, munosabatlari, emotsional faoliyatining rivojlanishiga ya’ni asar qahramonlariga munosabat bildirish, ularning holatiga kirishga harakat qilish kabi holatlar bilan birga boladagi ijodiy faollikni o‘yin, fantaziya, to‘qib chiqarish orqali kengaytiradilar.

Saxnalashtirilgan teatr faoliyat bilan bolalar nutqini rivojlantirish uzviy bog‘liq bo‘lib, qahramonlarning so‘zlari, bola nutqi bilan uyg‘unlashib uning so‘z boyligini orttiradi, nutqining tovush madaniyat mukammalashadi.

Teatrlashtirilgan mashg‘ulotlar o‘z ichiga ertaklardan lavhalar qo‘yish, rasmga qarab rolli suhbatlar tuzish, hayotiy mavzularga oid mustaqil improvizatsiya (o‘xshatish) qilish (kulguli voqealar, qiziq hodisalar va hokazo); qo‘g‘irchoq tomoshalarini ko‘rish va uni muhokama qilish, dramatizatsiyalashgan o‘yinlar, rolni ijro etish ifodaliligini rivojlantiruvchi mashqlar (verbal va noverbal); bolalarni xissiy rivojlantiruvchi mashqlarni qamrab oladi.

Quyidagi keltirilgan vazifalar teatrlashtirilgan faoliyatni shakllantirish bo‘yicha amalga oshiriladigan darslar majmuasi davomida hal etiladi:

- tarbiyalanuvchining ijodiy qobiliyat va ijodiy o‘z o‘ziga ishonish tuyg‘ularini shakllantirish;
- bolalarda ijodiy faoliyatning barcha jabhalariga qiziqish uyg‘otish;
- improvizatsiya (o‘xshatish) qilish ko‘nikmalarini egallash;
- nutq faoliyatining barcha shakl, funksiya va komponentlarini rivojlantirish;
- bilish ko‘nikmalarini mukammallashtirish.

Saxnalashtirish o‘yin teatrlashtirilgan mashg‘ulotning asosi hisoblanadi. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida teatrlashtirilgan o‘yinni o‘tkazishda quyidagilarga alohida e’tibor qaratish lozim:

- janr va mavzuning turli-tumanligi;
- pedagogik faoliyatning barcha yo‘nalishlariga teatrlashtirilgan faoliyatni har doim va har kuni singdirish.
- Bolalarning teatrlashtirilgan o‘yinni tayyorlash va o‘tkazishdagi maksimal faolligi.
- Bolalarning teatrlashtirilgan o‘yinni uyushtirishda o‘zaro va kattalar bilan hamkorligi.

Bundan ko‘rinib turibdiki, sahnalashtirilgan teatr faoliyati, san’atning amaliy turi sifatida, ham tarbiya, ham ta’lim uchun katta imkoniyatlarga ega va shaxsni tarbiyalash imkonini yaratadi. Aynan u bolani to‘laqonli qiziqtirishi, uni yanada jur’atli, faol qila olishi mumkin. Sahnalashtirilgan teatr faoliyati bolaning barcha qobiliyatlarini rivojlantiradi. Bola aqlan, jismonan va, eng muhimi, emotsional rivojlanadi. Teatrlashtirilgan faoliyat bilan shug‘ullanish bolalarga nafaqat ertaklar vositasida atrof olamni o‘rganish va bilish, balki u bilan uyg‘unlikda yashash, turli faoliyat shakllaridan zavq olish imkonini beradi.

Xulosa qilib aytganda, teatr bolalarga xursandchilik va quvonch baxsh etish bilan birga katta tarbiyaviy ahamiyatga ham egadir. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida katta spektakllarni qo‘yish mumkin emas. Kichik sahnali, kichik ertak asosida o‘zlarining

o‘yinchoqlari yordamida qo‘yish mumkin. Bu kichik ko‘rinishlarning har biri ham bolalarda katta taassurot uyg‘otadi va bayram ertaklariga ko‘tarinki rux baxsh etadi. Har qanday badiiy asar qo‘g‘irchoq teatri orqali ko‘rsatilsa, bolalar uchun yanada tushunarli bo‘ladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Azizova M. Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda qo‘g‘irchoq teatri vositasida axloqiy-estetik sifatlarni shakllantirish. Toshkent – 2010y.
2. B.R.Djurayeva, H.M.Tojiboyeva, G.M.Nazirova.maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarga ta’lim-tarbiya berishning zamonaviy tendensiyalari. Toshkent, O‘zPFITI nashriyoti – 2015 yil
3. Xasanboeva O.U. va boshq. Maktabgacha ta’lim pedagogikasi. T.: Ilm ziyo. 2006y.